

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Y.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOSHPULATOV AKROM IKROMOVICH

JINOYAT-HUQUQIY PRINSIPLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Toshpulatov Akrom Ikromovich

Jinoyat-huquqiy prinsiplar: nazariya va amaliyot3

Toshpulatov Akrom Ikromovich

Уголовно-правовые принципы: теория и практика29

Toshpulatov Akrom Ikromovich

Criminal law principles: theory and practice57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works63

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Y.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOSHPULATOV AKROM IKROMOVICH

JINOYAT-HUQUQIY PRINSIPLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Yu227 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Kabulov Rustam yuridik fanlar doktori, professor Rasulev Abdulaziz Karimovich yuridik fanlar doktori, professor Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich yuridik fanlar doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Y.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 14-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1161 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 13. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 31-iyulda tarqatildi.
(2023-yil 31-iyuldagi 05 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

M.K.O‘razaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

N.S.Salayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligining umum e'tirof etilgan prinsiplarga mos bo'lishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish jarayonining kuchayishi jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ham qonunchilikni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. BMTning 137 ta davlatdagi jinoyatchilik darajasi bo'yicha ma'lumotlari tahliliga ko'ra dunyo bo'yicha har 100 ming nafar aholiga o'rtacha 44,74 ta jinoyat to'g'ri keladi. Kambag'allik va ishsizlikning yuqoriligi jinoyatchilik darajasining ortishiga sabab bo'lsada, har doim ham iqtisodiy rivojlanganlik jinoyatchilikni kamaytirishga olib kelmayotganligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, jinoyat qonunchiligining jamiyatdagi jinoyatchilik darajasiga mos ravishda takomillashtirish, javobgarlik muqarrarligining ta'minlanishi, jinoyat sodir qilgan shaxslarning adolatli jazolanishi ham jinoyatchilik darajasiga ta'sir qilishi kuzatilmoqda¹. Bu esa jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarida prinsipial qoidalarni belgilash va ularga rioya qilinishi ta'minlashning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Jahonda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, jinoyat sodir qilgan shaxslar javobgarligining muqarrarligini ta'minlash, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxslarning o'zboshimchalik bilan jazolanishiga yo'l qo'ymaslik, jinoiy jazolarning haddan ortiq og'ir bo'lib ketmasligi, aybdorlarga nisbatan asossiz ravishda yengil jazo tayinlanmasligi, jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan insonparvar munosabatni ta'minlashning samarali choralarini ishlab chiqish, bu boradagi xalqaro huquq normalari qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda jinoyat qonunchiligini turlicha sharhlash va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilishiga yo'l qo'yadigan yoxud ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan normalardan voz kechish, jinoyat qonunchiligidagi mavjud bo'shliqlar, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsesual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi² doirasida qonunchilikni takomillashtirish, jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajriba, amaliyotni o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgan sharoitlarda jinoyat qonunchiligining rahbariy qoidalari, asosi bo'lgan jinoyat-huquqiy prinsiplar mazmunini to'g'ri belgilash, prinsiplarning jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi o'rnini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/crime-rate-by-country>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2017), “Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018), “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022), “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023) farmon va qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishi”ga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Jinoyat-huquqiy prinsiplarni tadqiq qilish, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, prinsiplarning jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi ahamiyati masalalari bo‘yicha tadqiqotlar BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), Xalqaro qizil xoch qo‘mitasi (ICRC), Indiana University (AQSh), Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law (GFR), American Law Institute (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Northwestern University (AQSh), University of Pennsylvania (AQSh), Violence Research Centre University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Stockholm University (Shvetsiya), Moskva davlat universiteti (RF), Toshkent davlat yuridik universiteti, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti¹ kabi ilmiy va oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilgan.

Jinoyat-huquqiy prinsiplarning nazariy va amaliy masalalarini o‘rganishga oid tadqiqotlarda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurashishda javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash, ishlarni odil sud tomonidan ko‘rib chiqilishi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda odil sudlovni ta‘minlash masalalari (BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), xalqaro harbiy jinoyatlarda muddatlarning o‘tishini hisobga olmaslik prinsipi, rasmiy yoki mansab mavqeidan qat‘iy nazar javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash prinsipi (Xalqaro qizil xoch qo‘mitasi (ICRC), xalqaro huquq prinsiplarining jinoyat qonunchiligiga implementatsiya qilinishi (Indiana University), jinoyat-huquqiy prinsiplarning xalqaro harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni ta‘minlashdagi o‘rni Nyurnberg xalqaro tribunali misolida (Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law), ayb uchun javobgarlik prinsipi (American Law Institute), jinoiy jazolarni qo‘llashda insonparvarlik prinsipi

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.unodc.org>, <https://www.legal-tools.org/>, <https://www.repository.law.indiana.edu>, <https://crimeresearch.org>, <https://www.icrc.org>, https://www.researchgate.net/publication_Principles_of_Criminal_Law, <https://www.britannica.com> <https://www.justice.gov>, <https://www.cambridge.org>, <https://link.springer.com>, <https://www.shs-conferences.org>, <https://www.msu.ru> va boshqa manbalardan olingan.

(University of Oxford), jinoyat-huquqiy taqiqlarning jazoning maqsadi va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari bilan bog'liqligi jinoyat-huquqiy prinsiplar asosida (Northwestern University), shaxs huquqlarini ta'minlashga oid prinsiplarning jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi ahamiyati (University of Pennsylvania), ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi prinsipining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi roli (Violence Research Centre University of Cambridge), ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlash (Stockholm University), jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimi (Moskva davlat universiteti), jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi qonuniylik prinsipini ta'minlash vositasi ekanligi (Toshkent davlat yuridik universiteti), jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy prinsiplarning o'rni (IIV Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti) mavzularida tadqiqotlar olib borilgan.

Bugungi kunda jahonda jinoyat-huquqiy prinsiplarga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: qonunda belgilanmagan jinoyat va jazoning yo'qligi (qonuniylik) prinsipining jinoyat qonunining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishidagi o'rni; jinoyat jazo choralari qo'llashda insonparvarlik prinsipini ta'minlash; jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda qaysi prinsiplarni huquqiy norma (prinsip-norma) sifatida belgilash; xalqaro jinoyat huquqi prinsiplarini ichki qonunchilikka implementatsiya qilish; jazoning odilligini ta'minlash; jinoyat-huquqiy prinsiplarning jinoyat-huquqiy siyosat va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi o'rni va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jinoyat-huquqiy prinsiplarning nazariy va amaliy masalalarini o'rganish ham milliy, ham xalqaro jinoyat huquqi fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda jinoyat-huquqiy prinsiplarning nazariy va amaliy muammolarining ayrim jihatlari M. H. Rustambayev, A. S. Yakubov, R. Kabulov, Q. R. Abdurasulova, R. A. Zufarov, E. Norbutayev, U. Sh. Xoliqulov, N. S. Salayev, R. S. Altiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Z. Shamsiddinovning yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi qonuniylik prinsipining bir qismi sifatida tadqiq qilingan.

Xorijiy olimlardan A. V. Naumov, V. D. Filimonov, S. S. Alekseyev, V. V. Malsev, A. I. Rarog, N. F. Kuznetsova, B. T. Razgildiyev, A. L. Vyazov, A. G. Berestinnikov, L. V. Inogamova-Xegay, R. S. Burganov, S. A. Galaktionov, D. V. Kiyaykin, O. N. Kovalenko, R. N. Korablev, T. R. Sabitov, I. S. Semenova, A. V. Sumachev, D. Y. Fisenko, S. Ye. Frolov, Ye. Ye. Cherednichenko, O. N. Shibkovlar jinoyat-huquqiy prinsiplarga oid tadqiqotlar olib borganlar.

Shuningdek, J. Dressler, F. Kutty, R. Legros, A. Cassese, L. N. Sadat, C. W. Maris, A. Mokhtar kabi olimlar va mutaxassislar tomonidan jinoyat-huquqiy prinsiplar tadqiq qilingan¹.

Respublikamizda jinoyat-huquqiy prinsiplarning kompleks tadqiqiga oid monografik tadqiqot o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib,

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

“Huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishning innovatsion usul va vositalari” ilmiy-amaliy grant loyihasi ilmiy yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat-huquqiy prinsiplar mohiyatini kompleks tadqiq qilish asosida ushbu prinsiplarning qonun ijodkorligi jarayoni va sud amaliyotida qo‘llashda mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash hamda jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat huquqi vazifa va funksiyalarining jinoyat-huquqiy prinsiplar shakllanishidagi o‘rnini aniqlash;

jinoyat-huquqiy prinsiplar tushunchasi, uning belgilarini tadqiq qilish;

jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimiga oid nazariyalarni tahlil qilish;

xalqaro jinoyat-huquqiy prinsiplarning milliy jinoyat-huquqiy prinsiplar shakllanishidagi ahamiyatini o‘rganish;

ayrim xorijiy davlatlar JKlarida jinoyat-huquqiy prinsiplarning aks ettirilishiga oid tajribani qiyosiy tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida prinsiplarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirilishini tahlil qilish;

JK prinsiplarining qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligini belgilashga ta’sirini tadqiq qilish;

sud amaliyoti materiallari asosida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida JK prinsiplariga rioya etilishi masalalarini tahlil qilish;

jazo tayinlash, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda JK prinsiplarining ahamiyatini o‘rganish;

jinoyat huquqi nazariyasini va jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti jinoyat-huquqiy prinsiplarning qonun ijodkorligi jarayonida va sud amaliyotida qo‘llanilishiga oid ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti jinoyat-huquqiy prinsiplarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, amaldagi qonunchilik va ayrim xorijiy mamlakatlar amaliyoti, jinoyat-huquqi fanida mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Qo‘yilgan vazifalarni hal etishda ilmiy tadqiqotning umumilmiy va maxsus usullaridan, ya’ni analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, so‘rov o‘tkazish, amaliyot materiallarni tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanilgan. Mazkur usullarning barchasi ma’lum darajada dissertatsiya tadqiqoti natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi JKda jinoiy javobgarlik prinsiplari va JK prinsiplari haqida so‘z yuritilganligi, jinoiy javobgarlik prinsiplarining JK prinsiplaridan farq qilishi asoslangan;

qonuniylik prinsipi jinoyat qonunining o'xshashlik bo'yicha qo'llanilishi talabi (analogiya)ni ham qamrab olishi asoslanib, jinoyat qonunini o'xshashlik bo'yicha qo'llash mumkin emasligini qonunda belgilash zarurligi isbotlangan;

fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipining mazmuni va nomlanishi bir-biriga muvofiq emasligi va ushbu prinsipni JKda yangi tahrirda bayon etilishi lozimligi asoslantirilgan;

javobgarlik yoki jazodan ozod qilish javobgarlikning muqarrarligi prinsipi mazmuniga mos emasligi, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni prinsip sifatida qonunchilikda aks ettirilishi kerakligi asoslangan;

ayb uchun javobgarlik prinsipining mohiyatini ochish asosida shaxsning aqli rasoligini istisno qilmaydigan tarzda ruhiy holati buzilganligi umumiy asoslarda javobgarlikni keltirib chiqarishi asoslantirilgan;

jismoniy va ruhiy majburlash tufayli jinoyat sodir qilish ayb uchun javobgarlik prinsipi mazmuniga mos emasligi, bunday hollar qilmishning jinoiylikni istisno qiladigan holat sifatida baholanishi kerakligi isbotlangan;

javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilishning qonunda belgilangan muddatlarini insonparvarlik va odillik prinsiplari mazmuniga moslashtirish lozimligi asoslantirilgan;

javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash uchun qonunda o'zini-o'zi o'ldirishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash zarurligi asoslangan;

qilmishning jinoiylikni faqat JKda belgilanishi qoidasiga muvofiq, giyohvandlik vositalari analoglarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik belgilanishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyat-huquqiy prinsiplar ilmiy asosda tizimlashtirilgan, ularning jinoyat-huquqiy siyosat va jinoyat qonunchiligi mohiyatini, yo'nalishlarini belgilaydigan, jinoyat huquqining tizimlilik va uzviyligini ta'minlaydigan fundamental g'oyalar va qadriyatlar yig'indisi ekanligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

xalqaro hujjatlar va ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida jinoyat qonunining o'xshashlik bo'yicha qo'llanilmasligini qonuniylik prinsipi tarkibida JKda belgilash bo'yicha taklif ilgari surilgan;

shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlik va insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish insonparvarlik prinsipining mohiyati ekanligi haqidagi xulosaga kelingan;

JKga jinoyatlar kvalifikatsiyasiga oid normalarning kiritilishi zarurligi sud amaliyoti materiallari asosida isbotlangan;

axloq tuzatish ishlari hamda ozodlikni cheklash jazolari belgilangan normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

mastlik holatida sodir qilingan qilmishni jazoni og'irlashtiruvchi holat deb topish to'g'ri emasligi, bunday hollarda umumiy asoslarda javobgarlik qo'llanilishi zarurligi asoslangan;

sud amaliyoti materiallari, jinoyat-protsesual qonunchiligi tahlili asosida jamoat birlashmalari, jamoalar tomonidan ta'sir choralari ko'rilishi yoki ma'muriy jazo qo'llab, jazodan ozod qilishni JKga kiritish zarurligi asoslab berilgan;

JK Maxsus qismi normalarida ayrim jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplari talablariga mos kelmasligi asoslanib, JKning yangi tahririda bunday holatlarni bartaraf qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 1000 dan ortiq sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 300 dan ortiq surishtiruvchi, tergovchi va sud xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatidan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusida ilmiy tadqiqotlar olib borishda, amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda, sud-tergov organlari faoliyatida, shuningdek jinoyat huquqi, jinoyat-protsesual huquqi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat-ijroiya huquqi kabi fanlarining nazariy qoidalarini boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati jinoyat-huquqiy prinsiplarni jinoyat qonunchiligida to'g'ri aks ettirish, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, ulardan jinoyat huquqi, jinoyat-protsesual huquqi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat-ijroiya huquqi fanlari bo'yicha dars mashg'ulotlarida, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat-huquqiy prinsiplarning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq qilish asosida:

JK 2-moddasi ikkinchi qismida Jinoyat kodeksi prinsiplarini aks ettirish; JKning 4-moddasini jinoyat qonunining o'xshashlik bo'yicha qo'llashga yo'l qo'yilmasligi haqidagi uchinchi qism bilan to'ldirish; JK 5-moddasi nomini qonun oldida tenglik prinsipi deb o'zgartirish va ushbu prinsipni yangi tahrirda bayon etish; JKda belgilangan hollarda shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi haqidagi qoidani JK 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipi mazmunida aks ettirish haqidagi takliflar JK yangi tahririni tayyorlash jarayonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-362-22-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar jinoyat qonunidagi tushunchalarni bir xilda qo'llanilishiga, tergov va sud amaliyotida qonuniylik prinsipini amalga oshirishga, jinoiy qilmishlarni o'zboshimchalik bilan kvalifikatsiya qilish holatlarining oldini olishga, jinoyat sodir qilgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishda tenglik ta'minlanishiga,

javobgarlikdan ozod qilish institutini javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga moslashtirishga xizmat qilgan;

ayb uchun javobgarlik prinsipi talablaridan kelib chiqib, aqli rasolikni istisno qilmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi haqidagi taklif 2019-yil 12-sentabrdagi “Psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–567-son Qonuni bilan JK 18- va 18¹-moddalariga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarni ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2021-yil 17-dekabrdagi 06/1-05/12-2171-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif aqli rasolikni istisno qilmaydigan tarzda ruhiy holati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar uchun umumiy asoslarda javobgarlik belgilanishiga xizmat qilgan;

shaxsning jismoniy yoki ruhiy majburlanganlik yoxud qo‘rqitilganlik oqibatida sodir qilgan jinoyatlarini qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga kiritish bo‘yicha taklif 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–459-son Qonuni bilan JKga kiritilgan 41¹-moddasini ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2021-yil 17-dekabrdagi 06/1-05/12-2171-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif odillik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarining amalda to‘g‘ri qo‘llanilishiga, ya‘ni shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik istisno qilinishiga xizmat qilgan;

jinoyat qonunchiligidagi javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish muddatlarini qisqartirish haqidagi taklif 2018-yil 20-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ–485-son Qonuni bilan JK 64-moddasiga kiritilgan o‘zgartishlarni ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2021-yil 17-dekabrdagi 06/1-05/12-2171-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif Jinoyat kodeksining 64-moddasida belgilangan muddatlarning qisqarishi orqali insonparvarlik prinsipini amalga oshirishni yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlikni takomillashtirish va o‘zini-o‘zi o‘ldirishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashga oid takliflar 2017-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ–436-son Qonuni bilan bilan JK 103- va 103¹-moddalariga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarni ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2021-yil 17-dekabrdagi 06/1-05/12-2171-son

ma'lumotnomasi). Ushbu taklif qilmishning jinoyligi va jazoga sazovorligi faqat jinoyat qonuni bilan belgilanishi haqidagi qonuniylik prinsipini amalga oshirish hamda o'zini-o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki unga undaganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qilgan;

giyohvandlik vositasi hisoblanmaydigan, ammo kishining aql idrokiga ta'sir qiluvchi moddalar g'ayriqonuniy savdosining ko'payib ketganligi munosabati bilan giyovandlik vositalarining analoglari bilan bog'liq qonunga xilof qilmishlar uchun jinoyiy javobgarlik belgilash haqidagi taklif 2018-yil 22-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-503-son Qonuni bilan JK 271-, 273-, 274- va 276-moddalariga kiritilgan o'zgartishlarni ishlab chiqishda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 17-dekabrda 06/1-05/12-2171-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif qilmishning jinoyligi va jazoga sazovorligi faqat jinoyat qonuni bilan belgilanishi haqidagi qonuniylik prinsipini amalga oshirish hamda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, shu jamladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 17 ta ilmiy maqola (ulardan 3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 253 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining kirishi (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat-huquqiy prinsiplar tushunchasi, belgilari va tizimi**" deb nomlangan birinchi bobida jinoyat huquqi vazifalari va funksiyalarining jinoyat-huquqiy prinsiplarning shakllanishidagi o'rni, jinoyat-huquqiy prinsiplar tushunchasi va belgilari, funksiyalari, jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimiga oid nazariyalar tahlil qilingan.

“Jinoyat huquqi vazifa va funksiyalarining jinoyat-huquqiy prinsiplar shakllanishidagi o‘rni” deb nomlangan birinchi paragrafda muallif, jinoyat-huquqiy prinsiplar masalasini tadqiq qilish bevosita jinoyat huquqi tushunchasi, jinoyat huquqi vazifalari va funksiyalarini aniqlab olish bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Jinoyat huquqi tushunchasi, mohiyatiga oid nuqtai nazarlar tahlili asosida jinoyat huquqining asosiy funksiyasi boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish emas, balki shaxs, jamiyat, davlatni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish hisoblanadi. Muallif jinoyat-huquqiy munosabatlar qo‘riqlash mazmunidagi, shaxsni jinoyat sodir etishdan tiyib turishga oid hamda regulyativ jinoyat-huquqiy munosabatlar turlariga bo‘linishini asoslaydi.

Jinoyat huquqining funksiyalari jinoyat huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi, jinoyat-huquqiy tartibga solish metodlari orqali amalga oshiriladigan hamda jinoyat huquqi vazifalarining ijrosini ta’minlaydigan yo‘nalishlardir. Jinoyat huquqining vazifalari va funksiyalari jinoyat-huquqiy prinsiplarda ifodalangan g‘oyalar, yo‘nalishlarga muvofiq amalga oshiriladi.

“Jinoyat-huquqiy prinsiplar tushunchasi va belgilari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda jinoyat-huquqiy prinsiplarning mohiyatini insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida taraqqiy etgan axloqiy qadriyatlar, muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan vazifalar, funksiyalarni hal qilishga qaratilgan g‘oyalar tashkil qilishi asoslangan.

Adabiyotlarning tahlili jinoyat-huquqiy prinsiplar borasida turlicha qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi, ammo umumiy ma’noda mualliflarning barchasi prinsiplarni jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari, yo‘nalishi va hajmini belgilovchi tayanch g‘oyalar sifatida e’tirof etilganligi aniqlandi.

Dissertant jinoyat-huquqiy prinsiplarning quyidagi belgilari mavjudligini ko‘rsatgan: 1) prinsiplar normalar bo‘lib, ular faqat siyosiy-huquqiy dasturlar bandlari yoki normalarning siyosiy-huquqiy umumlashmasi emas; 2) prinsiplar universal normalar hisoblanadi; umume’tirof etilgan barcha normalar prinsip hisoblanmaydi, ammo barcha prinsiplar faqat universal normalar hisoblanadi; 3) asosiy prinsiplar umume’tirof etilgan boshqa normalardan tarixiy taraqqiyotning muayyan asosiy qonuniyatlarini aks ettirishi bilan farq qiladi; 4) jinoyat-huquqiy prinsiplar imperativ normalar bo‘lib, boshqa normalar ushbu prinsiplarga moslashtirilishi lozim; 5) prinsiplar nafaqat boshqa normalarning huquqiyliigi mezoni, balki ayna paytda xalqaro huquq normalarini yanada takomillashtirish uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalardir.

Dissertant “jinoyat-huquqiy prinsiplarga jamiyat oldida turgan vazifalardan kelib chiqadigan, jinoyat-huquqiy siyosat va jinoyat qonunchiligi mohiyatini, yo‘nalishlarini belgilaydigan, jinoyat huquqining tizimliliigi va uzviyliyini ta’minlash uchun xizmat qiladigan fundamental g‘oyalar va qoidalar yig‘indisi”, degan ta’rifni bergan.

Huquqni qo‘llovchi idoralarda qilmishni jinoyat deb topish yoki topmaslik, javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish yoki qilmaslik, muqobil jazolardan birini

tayinlash huquqining mavjudligi, bunday huquqni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini qanday mezonlar asosida aniqlashda maqsadga muvofiqlik prinsipidan foydalanish kerakligi taklif qilingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat xizmatchilarining g'ayriqonuniy boylik orttirishining oldini olish, bu boradagi xalqaro majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida ayblilik prezumpsiyasi prinsipini jinoyat-huquqiy prinsip sifatida tadqiq qilish zarurati yuzaga kelganligi asoslangan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "Jinoyat-huquqiy prinsiplarning funksiyalari"ga bag'ishlangan bo'lib, muallif huquq funksiyalarining mazmunidan kelib chiqib, jinoyat-huquqiy prinsiplarning ham funksiyalari mavjudligini, ular bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lgan ma'lum bir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, kishilarning ongi va xulqiga ta'sir qiladigan yo'nalishlarda ifodalanishini ta'kidlaydi. Jinoyat-huquqiy prinsiplarning g'oyaviy, siyosiy va tartibga soluvchi funksiyalari mavjudligi asoslantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi sud hujjatlarini internet tarmog'ida chop etish (<https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>) bazasidagi sud hujjatlari tahlili hukmlarning asoslantirish qismida bevosita JK prinsiplariga murojaat qilish ko'payib borayotganligini ko'rsatdi. Muallif tomonidan ushbu platformadan 2020-2022-yillarda qabul qilingan 1000 dan ortiq sud hujjat (hukm va ajrim)lari, jumladan 100 dan ortiq oqlov hukmlari o'rganilganida, sudyalarning 22 % asoslantirish qismida jinoyat huquqi prinsiplariga murojaat qilganligi aniqlangan. 2020-yilda 19 %, 2021-yilda 24%, 2022-yilning 9 oyida 22 % holatda hukmlarda bevosita JK prinsiplariga asoslanilganligi dissertant fikrining to'g'riligini tasdiqlaydi.

O'rganilgan hukmlarining tahlili sudlar hukmning asoslantirish qismida asosan insonparvarlik va odillik prinsipiga tayanishgan, prinsiplarga asoslanib chiqarilgan hukmlarning deyarli barchasi (93,5 %)da insonparvarlik prinsipiga murojaat qilingan, faqat insonparvarlik prinsipiga 20%, insonparvarlik va odillik prinsipi birgalikda 60%, faqat odillik prinsipiga 6,5%, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga bir vaqtda murojaat qilish 13,5 %ni tashkil qilganligini ko'rsatdi.

"Jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimiga oid qarashlar" deb nomlangan to'rtinchi paragrafda muallif, jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat-huquqiy prinsiplarning tizimiga oid bir qancha qarashlar mavjudligini asoslab bergan. Huquq nazariyasida huquqiy prinsiplar ma'lum bir iyerarxik tuzilishga ega bo'lishi va turli darajalarga bo'linishi haqidagi qarashlar asosida jinoyat-huquqiy prinsiplarni ikkiga (umumiy va sohaviy); uchga (umumhuquqiy, umumjinoyat-huquqiy va maxsus); to'rtga (umumiy, sohalararo, sohaviy va huquqning ma'lum bir institutiga tegishli prinsip) bo'lishga oid nazariyalar tahlil qilingan.

Dissertant jinoyat-huquqiy prinsiplarni tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab tuzilishga ega bo'lgan; bir-biriga o'zaro aloqadorligi jihatidan jinoiy javobgarlik shartlarini belgilaydigan; jinoiy javobgarlik asoslari va mazmunini belgilaydigan hamda javobgarlikning muqarrarligini belgilaydigan prinsiplar; prinsiplarning

nazariy qarashlarda va normativ-hujjatlarda aks ettirilishiga qarab doktrinal va legal prinsiplarga bo‘lishni taklif qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Jinoyat-huquqiy prinsiplarni qonunchilikda aks ettirilishi masalalari**” deb nomlanib, unda xalqaro huquqiy hujjatlarda jinoyat-huquqiy prinsiplarning ifodalanishi, prinsiplarni jinoyat qonunchiligida aks ettirishga oid yondashuvlar hamda bu boradagi xalqaro tajriba o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi “Xalqaro huquqiy hujjatlarda jinoyat-huquqiy prinsiplarning ifoda etilishi” deb nomlanib, mazkur paragrafda xalqaro jinoyat-huquqiy prinsiplarining rivojlanishi tarixi, xalqaro hujjatlarda belgilangan prinsiplarning milliy qonunchilikka va aksincha, milliy qonunchilikning xalqaro hujjatlarga ta’siri masalalari tahlil qilingan. Muallif, 20-asrdan boshlab ilm-fanning tez rivojlanishi, davlatlar munosabatlarning kengayishi, zamonaviy transportning tez rivojlanishi davlatlar o‘rtasidagi chegaralar ahamiyatining kamayishiga, insonlarga dunyoning istalgan joyiga tezda yetib borish imkoni berilganligi, boshqa sohalar kabi jinoyatlarchilikning ham globallasuviga olib kelganligi bois, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun standartlarni belgilash zarurati yuzaga kelganligi sababli, ushbu standartlarning xalqaro hujjatlarda begilanishi natijasida xalqaro jinoyat huquqi prinsiplari shakllanganligini ko‘rsatgan.

Dissertant xalqaro jinoyat huquqi prinsiplarini milliy jinoyat qonunchiligi prinsiplarining xalqaro asoslari sifatida quyidagilarni ko‘rsatgan:

qonunda belgilanmagan jinoyat (nullum crimen sine lege) va jazo (nullum poena sine lege) mavjud emasligi (JK 4-moddasi, qonuniylik prinsipi);

qonun orqaga qaytishining taqiqlanishi (JK 4-moddasi, qonuniylik prinsipi, JK 13-moddasi, qonunning vaqt bo‘yicha amal qilishi);

bir jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortishning mumkin emasligi (ne bis in idem) prinsipi (JK 8-moddasi, odillik prinsipi);

shaxsiy javobgarlik va ayb uchun javobgarlik (JK 9-moddasi, ayb uchun javobgarlik prinsipi);

javobgarlikning muqarrarligi (JK 10-moddasi);

jinoyat ishini odil sud tomonidan ko‘rib chiqilishi (JK 4-moddasi, qonuniylik prinsipi va 8-moddasi, odillik prinsipi);

insoniy munosabatda bo‘lish (JK 7-moddasi, insonparvarlik prinsipi);

shaxsning rasmiy yoki mansab vakolatiga havola qilinishining ta’qiqlanishi prinsipi (JK 5-moddasi, fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi);

xalqaro jinoyatlar uchun muddatlarning qo‘llanilmasligi prinsipi (JK 64-moddasi yettinchi qismi, 69-moddasi oltinchi qismi).

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “Jinoyat-huquqiy prinsiplarning jinoyat qonunchiligida aks ettirilishiga oid yondashuvlar” deb nomlanadi. Ushbu paragrafda huquqiy prinsiplarni umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarga bo‘linishi haqidagi qarashlar tahlil qilinib, jinoyat-huquqiy prinsiplarni qonunchilikda aks ettirilishiga oid muammolar yoritilgan. Dissertant, A. V. Sumachyov, K. P. Urjinskiy, V. N. Ronjin, I. V. Korshikov, V. D. Filimonov, Y. Lyapunov, V. V. Malsev, N. F. Kuznetsova, M. X. Rustambayev, A. S. Yakubov, M. Usmonaliyevlarning jinoyat-huquqiy

prinsiplarni jinoyat qonunchiligida aks ettirilishiga oid fikrlarini tahlil qilib, jinoyat qonunchiligida prinsiplarning mazmuni to'liq aks ettirilmaganligi, jinoiy javobgarlik prinsiplari va Jinoyat kodeksi prinsiplari bo'yicha nomuvofiqlik mavjudligini e'tirof etib, **javobgarlikning asoslari va prinsiplari** belgilangani JK 2-moddasining ikkinchi qismi va **Kodeksning prinsiplari** haqida so'z yuritilgan 3-moddadagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun JK 2-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilgan:

“Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeksda jinoyat qonunchiligining prinsiplari, jinoiy javobgarlikning asoslari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligi aniqlanadi, ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilanadi”.

Ikkinchi bobning “Jinoyat-huquqiy prinsiplarni qonunchilikda aks ettirishga oid xalqaro tajriba” deb nomlangan uchinchi paragrafida, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari uchun Namunaviy jinoyat kodeksi, Rossiya, Ukraina, Belarus, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Moldova, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, AQShning jinoyat qonunchiligida jinoyat-huquqiy prinsiplarning aks ettirilishiga oid tajriba o'rganilgan. Dissertant, yuqoridagi mamlakatlar qonunchiligi tahlili hamda mamlakatimizda 2022-yilda sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan jinoyat ishlarining 24,6% yarashilganligi munosabati bilan tugatilganligidan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni prinsip sifatida jinoyat qonunida aks ettirilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Chunki, javobgarlikdan ozod qilish institutining mavjudligi javobgarlikning muqarrarligi prinsipi mazmuniga zid hisoblanadi, javobgarlikdan ozod qilishning prinsip sifatida jinoyat qonunida aks ettirish, mazkur nomuvofiqlikni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Disertatsiyaning **“Jinoyat-huquqiy prinsiplarning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aks ettirilishi”** deb nomlangan uchinchi bobida JK 4-10-moddalarida mustahkamlangan prinsiplar tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “Qonuniylik prinsipi”ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu prinsipning jinoyat qonunida aks ettirilishi, uning mazmuni, shaxsni, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati ochib berilgan. Qonuniylik prinsipining qonunga aniq rioya qilinishi, javobgarlik va jazo masalasi sudning ixtiyorida ekanligi, qonun analogiyasi, blanket dispozitsiyalarning mavjudligi, qonun normalarining kengaytirilib sharhlanishi kabi tushunmovchilik va nomuvofiqliklar mavjudligi ta'kidlangan, qonunni o'xshashlik bo'yicha qo'llashning taqiqlanishi haqidagi alohida qoidani ushbu prinsip tarkibida JKga kiritish zarurati mavjudligi asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlariga ko'ra o'tgan to'rt yarim yilda 3 266 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan. Shuningdek, 16 545 nafar shaxs sud zalidan ozod qilinib, 31 111 nafar fuqaroga nisbatan asossiz qo'yilgan ayblovlar bekor qilinganligi, qonunni kengaytirilib talqin qilinishi, qonunni o'xshashlik bo'yicha qo'llanishini ta'qiqlashga oid aniq normalarning qonunda bo'lishi zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovda JK 4-moddasiga analogiya (o'xshashlik bo'yicha qo'llash)ni taqiqlashga oid norma kiritish zarurati bormi?, degan savolga **sudyalarning** 47% bunday normani kiritish kerakligini; 47 % bunday norma kiritishga zarurat yo'qligini, 6% o'zga fikrda ekanligini; **surishtiruvchilar va tergovchilarining** 48% kiritish zarurligini, 52% kiritish zarur emasligini bildirishgan. Muallif JK 4-moddasini "Jinoyat qonunini o'xshashlik bo'yicha qo'llashga yo'l qo'yilmaydi" degan qism bilan to'ldirishni asoslagan.

Ushbu bobning "Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi" masalasiga bag'ishlangan ikkinchi paragrafida fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi nomi va matni bir-biriga mos emasligi, ushbu prinsip faqat jinoyat sodir qilgan shaxslarning tengligini e'tirof etishi asoslangan. I. E. Zvecharovskiy, N. G. Ivanov, T. R. Sabitov, V. V. Malsevlarning ushbu prinsip nafaqat jinoyat sodir qilgan shaxslar, balki barcha fuqarolarning tengligini ifodalashi zarurligi haqida fikrlariga qo'shib, jazo tayinlashda ayollar, voyaga yetmagan shaxslar, qariyalarning jinsga oid, yosh va jismoniy xususiyatlarini hisobga olinishi tenglik prinsipini buzish emas, aksincha ma'lum bir ma'noda teng imkoniyatga ega bo'lmagan shaxslarni kuchliroq muhofaza qilinishi nazarda tutishi qayd etilgan.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovda JK 5-moddasi "Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi"ning nomida "fuqarolar", matnida esa "... shaxslar"ning qonun oldida tengligi nazarda tutilgan, shu sababdan JK 5-moddasi nomini "Qonun oldida tenglik prinsipi" deb o'zgartirish fikriga qanday qaraysiz? degan savolga surishtiruvchi va tergovchilarning 48% ijobiy, ya'ni fuqaro va shaxs ikki xil tushuncha bo'lganligi sababli 5-modda nomi ham o'zgartirilishi kerak, 51% salbiy, uni o'zgartirish huquqni qo'llash amaliyoti uchun hech qanday ahamiyatga ega emas, deb fikr bildirgan bo'lsa, Sudyalar oliy maktabi magistrantlari va sudyalarning 87% JK 5-moddasi nomini o'zgartirishni, 13% ushbu taklifni qo'llamasligini ko'rsatishganligi ham, ushbu moddaning nomi va matnini yangi tahrirda berish etish zarurligini namoyon etilishi asoslangan.

Uchinchi paragraf "Demokratizm prinsipi"ga bag'ishlangan bo'lib, muallif ushbu prinsip ko'proq umumhuquqiy prinsip bo'lganligi sababli faqat bir nechta davlatlar jinoyat qonunchiligida prinsip sifatida aks ettirilganligi, ushbu prinsip o'z mazmuniga ko'ra jinoyat sodir etgan shaxslarning axloqini tuzatish yo'nalishida jinoyat-ijroiya qonunchiligi, sudda ishlarni ko'rishda jamoatchilik ishtiroki masalasida jinoyat-protsessual qonunchiligining mazmuniga mos kelishini ta'kidlagan. So'nggi yillarda, sudlarda ishlarni ko'rishda jamoatchilik ishtirokining shakli bo'lgan sayyor sudlar majlislarining ko'lami oshib borayotganligi, jumladan 2016-yilda sayyor sudda ko'rilgan jinoyat ishlari sudlarda ko'rilgan umumiy jinoyat ishlarining 6,2%ini tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda ushbu ko'rsatkich 28,5%ni, 2018-yilda 46,1%, 2019-yilda 48,1%, 2020-yilda 22%, 2021-yilda 39,8%ga ko'payganligi ta'kidlangan.

"Insonparvarlik prinsipi"ga bag'ishlangan to'rtinchi paragrafda insonparvarlik prinsipining jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi ahamiyati haqida M. X. Rustambayev, Q. R. Abdurasulova, A. S. Yakubov, R. Kabulovlar fikrlari tahlil qilinib, jinoiy jazo jinoyat sodir qilgan shaxsga qilmishi uchun davlatning javob ta'sir chorasi bo'lib, ushbu choraning haddan tashqari qattiq

bo'lmashligi, jinoyat sodir qilgan shaxsga jismoniy yoki boshqacha azob bermashligi, jazo jinoyatga va jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan mos (adekvat) bo'lishini ta'kidlagan.

So'rovda ishtirok etgan respondentlarga jinoyat ishi bo'yicha qaror chiqarishda bevosita JK 4-10-moddalarida belgilangan prinsiplarga havola qilganmisiz (o'z qaroringizni asoslantirishda prinsiplarni ko'rsatganmisiz)?, degan savolga surishtiruvchi va tergovchilarning 32% ha deb, 68% yo'q, qarorlarni asoslantirishda JK tegishli moddalarini ko'rsatib o'tish yetarli, deb javob berishgan bo'lsa, xuddi shu savolga sudyalarning 67% prinsiplarni qarorlarida ko'rsatishini, 33% esa, ko'rsatmasligini bildirishgan.

Dissertant so'nggi vaqtlarda insonparvarlik prinsipini faqat bir tomonlama, ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan rahm-shafqat qilish, yengilroq jazo berish sifatida talqin qilinishiga yo'l qo'yib bo'lmashligini ta'kidlab, insonparvarlik prinsipi belgilangan normada boshqa shaxslarning ham huquqlari o'z aksini topishi kerakligini taklif qilgan.

Muallif 1 000 dan ortiq sud qaror (hukm va ajrim)larini o'rganib, sudlar tomonidan odatda sanksiyada belgilanganidan ham kamroq yoki sanksiyada belgilanmagan boshqa engilroq jazo tayinlashda asoslantirish qismini kuchaytirish uchun, albatta, insonparvarlik prinsipiga murojaat qilinganligi, aksincha belgilangan sanksiya doirasida jazo tayinlangan birorta sud hukmida prinsiplarga havola qilinmaganligini aniqlagan.

Tadqiqotchi insonparvarlik prinsipi JK 7-moddasida faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishga qaratilganligi to'g'ri emas, deb, ushbu prinsip JK 2-moddasi talablaridan kelib chiqib, jabrlanuvchining huquqlarini ham ta'minlashga nisbatan qo'llanilishi va bu JKning 7-moddasida o'z aksini topishi kerakligini qayd etgan holda, JK 7-moddasini yangi tahrirda bayon etishni taklif qilgan.

Beshinchi paragraf "Odillik prinsipi"ga bag'ishlangan bo'lib, unda odillik (adolat) jinoyat huquqining dolzarb masalalardan hisoblanishi, chunki, qonuniylik, tenglik va insonparvarlik har doim ham adolat (odillik)ni ta'minlay olmasligi asoslangan. Odillik prinsipi qonun va jazoning odil bo'lishini nazarda tutadi. Jinoyat qonuni odil bo'lishi uchun birinchidan, asoslangan bo'lishi, ya'ni jinoyat qonuni oldiga qo'yilgan vazifalarni bajaradigan darajada javobgarlik belgilangan bo'lishi; ikkinchidan, jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini hisobga olib, uni kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi, uchinchidan, jamiyatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar tufayli paydo bo'layotgan yangi jinoyatlar turlariga nisbatan o'z vaqtida javob reaksiyasi (qilmishlarni jinoyat deb topish) orqali huquqiy bo'shliqni to'ldirishi kerak. Tadqiqotchi jinoyat qonunchiligida aks etmagan, ammo jinoyat huquqi nazariyasida mavjud jazoning individualligi prinsipini odillik prinsipini amalga oshirishning asosiy vositasidir, deb hisoblaydi.

"Ayb uchun javobgarlik prinsipi"ga bag'ishlangan oltinchi paragrafda ayb tushunchasi, uning jinoiy javobgarlikka ta'siri, aybsiz holda zarar yetkazganlikning oqibatlari, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalalari tahlil qilingan.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 28-moddasida belgilangan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi

qonunda nazarda tutilgan tartibda, oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy uchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi haqidagi qoidadan kelib chiqadi. Qilmishning jinoiyligi belgilari va jinoyat tarkibi elementlaridan biri sifatida ayb, shaxsning o'z qilmishi va uning natijasida kelib chiqadigan oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatini aks ettirganligi sababli, dissertant faqat aqli raso, qonunda belgilangan javobgarlik yoshiga yetgan shaxslar jinoyat subyekti bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Dissertant, ayb ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning o'z qilmishi va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati ekanligi hamda yuridik shaxsning qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati bo'lishi mumkin emasligi sababli, JKda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Yettinchi paragrafda "Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi" haqida so'z yuritilib, unda jinoyat qonunida belgilangan javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishga oid normalar mazkur prinsip mazmuniga qanchalik mosligi adabiyotlarni o'rganish va amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida JK 10-moddasida qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi belgilanganligi JK 64-68-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish haqidagi normalarga zid emasmi? degan savolga surishtiruvchi va tergovchilarning 46% JK 10-moddasiga shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi haqidagi normani kiritish kerak, 50% javobgarlikdan ozod qilish insonparvarlik prinsipiga asoslanadi, 4% esa boshqa fikrda ekanligini bildirishgan bo'lsa, sudyalarning 50% JK 10-moddasiga shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi haqidagi normani kiritish kerak deb, 37% javobgarlikdan ozod qilish insonparvarlik prinsipiga asoslanishini, 13% esa boshqa fikrda ekanligini bildirishgan.

2022-yilda sudlar tomonidan 75 078 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari ko'rib chiqilgan bo'lsa, bunda sudlanganlar 56 542 (sudlarda ishi ko'rilgan jami shaxslarga nisbatan 75%) nafarni tashkil qilganligi aniqlangan. Ya'ni, jinoyat sudlarida ishi ko'rilgan shaxslarning har to'rttadan bittasi (25%) javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan. Bunda, faqat yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilinganlar 15 315 nafarni (sudda ishi ko'rib, sudlanmagan shaxslarning umumiy soniga nisbatan 82%) tashkil qilganligi, javobgarlikning muqarrarligi haqida so'z yuritishning to'g'riligini shubha ostiga qo'yadi. Shuningdek, javobgarlikning muqarrarligi prinsipi jinoyat qonunchiligidagi javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish institutlari, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar hamda javobgarlikka tortishdan ozod qiladigan alohida holatlar bilan hamda JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan faqat jabrlanuvchi shikoyati bilan qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari mazmuni bilan muvofiq emasligi asoslangan.

Shu sababdan dissertant, JK 10-moddasini JKda belgilangan holatlarda shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi haqidagi ikkinchi qism bilan to'ldirish lozimligini asoslagan.

"Jinoyat kodeksi prinsiplarining qonun ijodkorligi jarayoni va sud amaliyotida qo'llanilishi masalalari" deb nomlangan to'rtinchi bobda qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligini belgilashda, jinoyatlarni

kvalifikatsiya qilishda, jazo tayinlashda, javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishda JK prinsiplarning ahamiyati tahlil qilingan.

“Qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligini belgilashda Jinoyat kodeksi prinsiplarning ahamiyati” deb nomlangan birinchi paragrafda shaxsning sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagani uchun unga sudning ajrimi bilan og‘irroq jazo berilishi (sud hukmida belgilangan jazoning og‘irroq jazo bilan almashtirilishi) qonuniylik prinsipiga qanchalik mos kelishi, eng yengil jazo turi hisoblangan jarima jazosi amalda majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash jazolaridan ko‘ra og‘irroq jazo bo‘lib qolganligi qonun normalari tahlili va amaliyotdan olingan misollar bilan asoslangan. Jinoiy jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlaganlik va sud hujjatini ijro etmaslikni farqlashda jiddiy qarama-qarshiliklar borligi aniqlanib, JKning yangi tahriri loyihasida sud hukmi bilan tayinlangan jazolarni ijro etmaslik oqibatida ularni og‘irroq jazo turi bilan almashtirish hamda sud hujjatlarini ijro etmaganlik uchun javobgarlik belgilangan norma o‘rtasidagi farq aniq belgilanishi, sud hujjatlarini bajarmaganlik bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash va ularning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida berilgan tushuntirish qayta ko‘rib chiqilishi zarurligi ta’kidlangan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksi prinsiplarining o‘rni” deb nomlanib, unda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonlari kodeksning prinsiplariga qanchalik mosligi, kvalifikatsiyaning qonuniylik prinsipiga asoslanishi Belarus, Moldova, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston jinoyat qonunchiligi asosida tahlil qilingan. Muallif, qonuniylik prinsipi mazmunidan kelib chiqib, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid quyidagi: jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish davlatning butun hududida bir xilda amalga oshirilishi; JKning muayyan moddasi, qismi, bandida nazarda tutilgan holatlar bir xilda kvalifikatsiya qilinishi ta’minlanishi; har qanday jinoiy hodisaga nisbatan bir xil metodologik va yuridik munosabat bildirilishi; jinoyatni kvalifikatsiya qilishning asosi JPKda belgilangan talablarga javob beradigan tarzda olingan dalillarga asoslanishi; jinoyat qonunining o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kabi talablarini tahlil qilgan.

Tadqiqot jarayonida JKga qilmishlarni kvalifikatsiya qilishga oid alohida normalar kiritilishi bo‘yicha qanday fikrdasiz? degan savolga surishtiruvchi va tergovchilarning 56% ijobiy qarayman, bu amaliyotda duch kelinayotgan tushunmovchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi, 44%, salbiy qarayman, bu masala JK Umumiy qismida yetarlicha aks ettirilgan, Oliy sud Plenumi tushuntirishlari ham mavjud, deb javob berishgan bo‘lsa, xuddi shu savolga sudyalarning 78% ijobiy, 11% salbiy, 11% boshqa fikrda ekanligini bildirgan.

Muallif JKga qilmishlarni kvalifikatsiya qilishga oid munosabatlarni tartibga soladigan alohida bob kiritishni, bunda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi, murakkab aybli, tamom bo‘lmagan, takroran sodir etilgan jinoyatlarni, jinoyatlar majmuini, retsdiv jinoyatlarni va normalar raqobatida yuzaga kelgan holatlarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid qoidalar aniqlashtirilishi kerakligi taklif qilingan.

To'rtinchi bobning "Jazo tayinlashda Jinoyat kodeksi prinsiplariga rioya etish" deb nomlangan uchinchi paragrafida utilitar falsafa, qo'rqitish nazariyasi, sotsiologik yo'nalishlarda jazoning mohiyati haqidagi qarashlar tahlil qilinib, jazo tayinlashda insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga rioya etilishi amaliyotni o'rganilgan.

2022-yilda sudlar tomonidan jarima jazosi 5 846 ta (jami jazolar soniga nisbatan 10,6%); muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi 34 ta (jami jazolarning 0,06 %); majburiy jamoat ishlari 644 ta (jami jazolarning 1,16%); axloq tuzatish ishlari jazosi 16 897 ta (jami jazolarning 30,6%); ozodlikni cheklash jazosi 14 081 ta (jami jazolarning 25,5%); ozodlikdan mahrum qilish jazosi 17 610 ta (jami jazolarning 31,9 %); umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi 1 ta tayinlangani (jami jazolarning 0,001%); 1 429 nafar shaxs shartli hukm qilinganligi, 14 446 ta ish (15 315 nafar shaxs) yarashuvga asosan tugatilganligi aniqlangan. Yuqoridagi raqamlar so'nggi yillarda shaxsni jamiyatdan ajratmaydigan jazolar ko'payotganligi, xalqaro tajribadan hamda mamlakatimizda probatsiya xizmati yo'lga qo'yilganligidan kelib chiqib, jinoiy jazo va probatsiya choralarini jinoyat qonunining alohida normalarida belgilanishi zarurligi asoslangan.

"Javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda Jinoyat kodeksi prinsiplarning ahamiyati" deb nomlangan to'rtinchi paragrafda JK Umumiy qismida javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishga oid normalar mavjudligiga qaramasdan Maxsus qismning 27 ta moddasida javobgarlikdan, 6 ta moddasida jazodan ozod qilishga oid maxsus normalar mavjudligi, bu normalar qanday mezonlar asosida tanlab olinganligi tahlil qilingan. Ijtimoiy xavfliligi bir xil bo'lgan jinoyatlarning ayrimlari uchun javobgarlikdan ozod qilish qo'llanilishi mumkinligi, boshqalari uchun bunday imkoniyat berilmaganligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, JKda jazodan ozod qilish turi hisoblangan shartli hukm qilish AQSh, Avstraliya va Shveytsiyada probatsiya chorasi sifatida, Rossiyada jazo tayinlashning umumiy asosi sifatida, Belarusda jinoiy javobgarlikning boshqa choralari sifatida, Qozog'istonda jazo tayinlashning umumiy asosi sifatida belgilanganligini e'tiborga olib, JKga boshqa jinoyat-huquqiy choralari deb nomlangan yangi bob kiritish va unga shartli hukm qilish, probatsiya choralarini kiritish taklif qilingan.

Tadqiqotchi jazodan ozod qilish masalasida JK va JPK o'rtasida nomuvofiqlik borligini, ya'ni JPKning 463-moddasi uchinchi qismi 4-bandida mahkumning tuzalishiga jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo'llaniladigan jamoat ta'sir choralari yoki ma'muriy jazo choralari ko'rish yo'li bilan erishish mumkin bo'lsa, sud jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarishi mumkinligi belgilangan, JKda esa jazodan ozod qilishning bunday asosi yo'qligini ko'rsatib, JKga jamoat birlashmalari, jamoalar kafilligi asosida javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishga oid normalar kiritilishi zaruratini asoslagan.

XULOSA

Jinoyat-huquqiy prinsiplarning nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishining natijalari bo'yicha quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

I. Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosa va tavsiyalar:

1. "Jinoyat-huquqiy prinsiplar jamiyat oldida turgan vazifalardan kelib chiqadigan, jinoyat-huquqiy siyosat va jinoyat qonunchiligining mohiyatini, yo'nalishlarini belgilaydigan, jinoyat huquqining tizimliliigi va uzviylikini ta'minlash uchun xizmat qiladigan fundamental g'oyalar va qoidalar yig'indisidir", degan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

2. Jinoyat-huquqiy prinsiplarning: ilmiy asoslanganlik, siyosiy asoslanganlik, imperativlik, universallik, tizimlilik belgilariga ega ekanligi asoslangan.

3. Jinoyat-huquqiy prinsiplarni tizimlashtirishda ularning mazmuni va tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash taklif etilgan:

1) jinoiy javobgarlik shartlarini belgilaydigan prinsiplar (qonuniylik va fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm);

2) jinoiy javobgarlik asoslari va mazmunini belgilovchi prinsiplar (insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik);

3) jinoiy javobgarlikning majburiylikini belgilaydigan javobgarlikning muqarrarligi prinsipi.

Tuzilishiga ko'ra JK prinsiplarini oddiy va murakkab prinsiplar sifatida ham tizimlashtirish mumkin:

oddiy tuzilishga ega prinsiplarga bitta talab (odatda bitta qismdan iborat normalarda ifodalangan) nazarda tutilgan prinsiplar kiradi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi (5-modda), demokratizm (6-modda), ayb uchun javobgarlik (9-modda), javobgarlikning muqarrarligi (10-modda) prinsiplari bir talab (qism)dan iborat norma sifatida shakllantirilgan;

murakkab tuzilishga ega prinsiplar bir nechta talabdan iborat (bir normaning bir necha qismlaridan tarkib topgan) prinsiplar hisoblanadi. Qonuniylik (4-modda), insonparvarlik (7-modda), odillik (8-modda) prinsiplarida 2-3 tadan talablar mavjuddir.

4. Jinoyat-huquqiy prinsiplar legal va doktrinal prinsiplar sifatida ham tasniflangan. Legal prinsiplar deganda, JKsida prinsip-norma sifatida belgilangan prinsiplar, doktrinal prinsiplar deganda esa, yuridik adabiyotlarda, olimlarning qarashlarida ifodalangan, jinoyat qonunida norma sifatida aks ettirilmagan prinsiplar tushuniladi.

5. Jinoyat-huquqiy prinsiplar nafaqat davlat jinoyat-huquqiy siyosatining normada ifodalanishi, balki jinoyat huquqi rivojlanishining istiqbollari belgilovchi yo'nalishi hisoblanadi, degan pozitsiya ilgari suriladi. Shu ma'noda olganda, jinoyat-huquqiy norma ijodkorligi, kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya, jinoiy qilmishlarni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash, jinoyat-huquqiy

rag'batlantirish, JK normalarini kodifikatsiya qilish kabi doktrinal prinsiplarni davlatning jinoyat-huquqiy siyosatini amalga oshirish vazifalaridan kelib chiqib, legal prinsiplar mazmunini ochib beradigan, ularni aniqlashtiradigan, to'ldiradigan prinsiplar sifatida baholash lozim.

6. Qonuniylik prinsipining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

qonuniylik prinsipi hech kim qonundan ustun emasligi, barchaning qonun oldida tengligi, biror-bir shaxs qonunda belgilangan tartibda va faqat qonunni buzganlikdan tashqari jazolanishi mumkin emasligi haqidagi huquq ustuvorligi doktrinasini (rule of law) mazmunidan kelib chiqadi;

qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat jinoyat qonuni bilan belgilanadi;

jinoyat ishlarini ko'rib chiqib hal qilishda qonun normalari bir xilda talqin qilinadi va qo'llanadi;

jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha huquqni qo'llash faoliyati jinoyat qonunchiligiga asoslanadi;

shaxsni aybdor deb hisoblash faqat jinoyat qonuniga asoslanadi;

jinoyat qonunini o'xshashlik bo'yicha qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Qonuniylik prinsipi huquqni belgilovchi prinsip bo'lib, insonparvarlik, odillik, javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplar mavjud bo'lishining zaruriy sharti hisoblanadi.

7. So'nggi yillarda jinoyat qonunchiligiga yangi turdagi jinoyatlarni kiritish (kriminalizatsiya) va yangi jazolarni kiritish, mavjud jazolarni og'irlashtirish (penalizatsiya)ga oid ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalarning kiritilayotganligi qilmishlarning jinoiyligini belgilash yoki jazoni og'irlashtirishning qanday mezonlarga asoslanishi haqidagi masalalarni dolzarb qilib qo'yimoqda.

Qonuniylik prinsipining tarkibiy qismi sifatida qilmishning jinoiyligini belgilash va uni jinoyat qonunchiligiga kiritishning umumiy mezonini sifatida qilmishning ijtimoiy xavfliligi asos qilib olinadi. Ammo, nima uchun aynan bir qilmishning ijtimoiy xavfli deb topilishi, boshqasi esa ijtimoiy xavfli deb topilmasligining mezonlari adabiyotlarda aniq berilmaganligi bois alohida olingan har bir holat uchun umumiy bo'lgan mezonni o'rnatib bo'lmasligi, ayrim hollarda qilmish huquqqa xilof bo'lsada, ammo ijtimoiy xavfi yuqori bo'lmasligi, jamiyat va davlat uchun jiddiy xavf tug'dirmasligi, qilmishning tarqalganlik darajasi, jamiyatda qilmishga nisbatan munosabatning darajasidan kelib chiqib, qilmishni jinoiy deb topish uchun universal bo'lgan mezonni o'rnatib bo'lmasligi haqidagi xulosaga kelindi.

8. Qilmishlarni jinoiyligini belgilash quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatildi:

jinoiy javobgarlikning umumiy asoslarini belgilash orqali (masalan jinoyat subyekting yoshi, aybning shakli);

Jinoyat kodeksi Maxsus qismiga yangi normalarni kiritish;

Maxsus qism normalarining dispozitsiyasini o'zgartirish, yangi kvalifikatsiya qiluvchi belgilarni kiritish.

9. Qilmishning jinoiyligini belgilashda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

qilmishlarni jinoyatligini belgilashga oid ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi;

umumiy norma mavjud bo'lgani holda maxsus normalarni yaratishga ko'proq e'tibor berilayotganligi, bunda bir qilmish uchun umumiy va maxsus normada belgilangan jazo choralarining mutanosib emasligi;

blanket normalarning ko'payib ketayotganligi;

jinoyat qonunchiligiga yangi normalarni kiritishda yuridik texnika qoidalariga rioya qilinmayotganligi.

10. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi quyidagilarni aks ettirishi lozim:

birinchidan, tenglik prinsipi jinoyat qonunida faqat bir holatda, ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxslarning bir xilda jinoyat javobgarlikka tortilishi zarurligida namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, tenglik prinsipi barchaning bir xil javobgar bo'lishi kerakligi va jazolanishi zarurligini bildirmaydi;

uchinchidan, jinoyat jazo tayinlashda ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan o'ziga xos yengilliklarni tenglik prinsipiga mos emas deb hisoblash mumkin emas, chunki qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplariga muvofiq har bir shaxsning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari jazo tayinlashda hisobga olinishi kafolatlanadi;

to'rtinchidan, tenglik bir xil jinoyatlar uchun jinoyat javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish asoslarining bir xilda bo'lishini ta'minlaydi;

beshinchidan, jamiyatdagi o'zgarishlardan kelib chiqib, jinoyat qonunchiligini kriminalizatsiya, penalizatsiya, dekriminalizatsiya va depenalizatsiya qilishning bir xil, teng va mos bo'lishiga xizmat qilishi kerak.

11. Insonparvarlik prinsipi jinoyat sodir qilgan shaxsga qilmishi uchun davlat javob chorasining haddan tashqari qattiq bo'lmasligi, jinoyat sodir qilgan shaxsga jismoniy yoki boshqacha azob berilmasligi, belgilangan jazo jinoyatga va jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan mos (adekvat) bo'lishi kerakligida namoyon bo'ladi.

Sud amaliyotining tahlili faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan JK Maxsus qismi muayyan moddasida belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq jazo qo'llash, javobgarlikdan ozod qilishni asoslantirishda sudlar insonparvarlik prinsipiga murojaat qilayotganligini ko'rsatdi.

Insonparvarlik prinsipi jinoyat qonunchiligida faqat jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo'lish va qilmishiga mos jazo tayinlashni kafolatlab, jinoyatdan jabr ko'rganlar huquqini tiklash masalasi e'tibordan chetda qolgan, insonparvarlik nafaqat jinoyat sodir qilingan, balki jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsga nisbatan ham bo'lishi kerak, degan g'oya ilgari suriladi.

12. Odillik prinsipi o'z mohiyatiga ko'ra jinoyat huquqining birlamchi, markaziy prinsipi hisoblanadi, chunki aynan ushbu prinsip qonuniylik, tenglik, insonparvarlik har doim ham adolat (odillik)ni ta'minlay olmasligi mumkin, degan pozitsiya ilgari suriladi.

Odillik nafaqat jinoyat sodir qilgan shaxsga jazo tayinlashda, balki jinoyat qonunining mazmunida ham aks etishi taklif qilinadi.

Jinoyat qonuni odil bo'lishi uchun birinchidan muayyan qilmish uchun belgilangan jazo asoslangan bo'lishi, ya'ni qonunda belgilangan bo'lishi; ikkinchidan, jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini hisobga olib, uni kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi, uchinchidan, jamiyatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar tufayli paydo bo'layotgan yangi jinoyatlar turlariga nisbatan o'z vaqtida javob reaksiyasi (qilmishlarni jinoyat deb topish) orqali huquqiy bo'shliq to'ldirilishi kerak.

Bir qancha xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida hamda yuridik adabiyotlarda odillik ijtimoiy adolatni tiklashda ifodalanadi, degan qarashlarning tahlili asosida, JKda ijtimoiy adolatni tiklashni jazoning maqsadi sifatida belgilashning zarurati yo'qligi quyidagicha asoslanadi:

birinchidan, ijtimoiy adolat yuridik mezonlar bilan o'lchanmaydi va uning buzilganligi va tiklanganligini aniqlash imkoni mavjud emas;

ikkinchidan, jazoning maqsadi buzilgan ijtimoiy adolatni tiklash deb olinadigan bo'lsa, unda jazo jinoyat sodir qilgan shaxsdan o'ch olishga aylanib qoladi;

uchinchidan, agar jinoyat sodir etilganligi tufayli ijtimoiy adolat buzilgan deb hisoblansa, uni tiklashni jazosiz ham amalga oshirish mumkin (yetkazilgan zararni qoplab berish va h.k.) va bu jinoiy javobgarlik mohiyatiga zid bo'lib qoladi.

13. JKning 135-, 137-, 166-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari, 186 va 1861-moddalari, 180, 181, 1811-moddalari misolida jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazolar odillik prinsipi mos emasligi ko'rsatilib, JK Maxsus qismida jinoyatlar uchun jazolarni belgilashda qilmishning ijtimoiy xavfliligi, obyektlarning muhimligiga qarab belgilanishi zarurligi asoslantirilgan.

14. Ayb uchun javobgarlik prinsipi o'zida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ikki tushuncha "ayb" va "aybdorlik"ni ifoda etadi. Ayb deganda jinoiy javobgarlikning subyektiv asosini, aybdorlik deganda subyektning aybini huquqni qo'llovchi organ tomonidan protsessual rasmiylashtirilganligi holati tushuniladi.

Ayb shaxsning o'z qilmishiga nisbatan ruhiy holatini ifodalashidan kelib chiqqan holda, muallif mastlik holatida sodir etilgan qilmishni jazoni og'irlashtiruvchi holat deb topish to'g'ri emasligi, mastlik holatidagi shaxs o'z harakatlarini har doim ham boshqara olmasligiga asoslanib, bunday holatda sodir qilingan jinoyatlar uchun umumiy asoslarda javobgarlikka tortishning yetarli bo'lishini taklif qilgan.

15. Ayb uchun javobgarlik prinsipi mazmunidan kelib chiqqan holda, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini JKga kiritilishi maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelindi, chunki jinoiy javobgarlikning asosiy shartlaridan biri ijtimoiy xavfli qilmishda aybning mavjudligidir. Ayb ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning o'z qilmishi va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatidir. Yuridik shaxsning qilmishga nisbatan ruhiy munosabati bo'lishi mumkin emasligi sababli, o'z-o'zidan jinoyat tarkibi ham mavjud bo'lmaydi.

16. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi jinoyat qonunchiligidagi javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish institutlari, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar hamda javobgarlikka tortishdan ozod qiladigan alohida holatlar (JK 177-moddasi beshinchi qismi; JK 240-moddasi ikkinchi qismi) bilan hamda JPK 325-moddasida nazarda tutilgan faqat jabrlanuvchi shikoyati bilan qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari mazmuni bilan o'zaro muvofiq emas, degan xulosaga kelindi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligi tajribasi hamda mamlakatimizda sudlarda ko'rilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha har to'rta shaxsdan biri javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinganligidan kelib chiqqan holda qonunda nazarda tutilgan hollarda shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi mazkur prinsip mazmunida aks etishi kerakligi taklif etiladi.

17. Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida asossiz ravishda bitta qilmishni JK bir nechta moddalari bilan kvalifikatsiya qilish, sudlar tomonidan dastlabki tergovda qo'yilgan ayblovlarni o'zgartirish, ortiqcha qo'yilgan ayblovlarni chiqarib tashlash darajasi yuqoriligidan kelib chiqib, JKga jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid normalarni kiritish lozimligi asoslantirildi.

18. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda quyidagi talablarga rioya qilinishi zarurligi asoslangan:

jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish davlatning butun hududida bir xilda amalga oshirilishi;

har qanday jinoiy hodisaga nisbatan metodologik va yuridik munosabat bir xilda bo'lishi;

JKdagi normalar raqobatiga oid qoidalar aniqlashtirilishi;

javobgarlikni yengillashtiradigan normalarning ustunligi;

kvalifikatsiyaning to'liqligi va aniqligi;

jinoyatni kvalifikatsiya qilishning asosi JPKda belgilangan talablarga javob beradigan tarzda olingan dalillarga asoslanishi;

jinoyat qonunining o'xshashlik bo'yicha qo'llanilishiga yo'l qo'yilmasligi.

19. Qonuniylik prinsipiga muvofiq, jinoyat sodir qilishning jazo bilan birgalikda boshqa huquqiy oqibatlar ham faqat JK bilan belgilanishi zarur. Ammo, jinoyat sodir qilgan shaxsni tutib berish, shaxsni O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish yoki uning hududida bo'lishni taqiqlash, kafillik instituti orqali javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish, jinoyatni sodir qilish qurollari yoki predmetlarini musodara qilish kabi jinoyat-huquqiy ta'sir choralari JKda aks ettirish zarurligi asoslantirildi.

20. Jinoyat-huquqiy prinsiplar mohiyati haqida quyidagi konsepsiya ilgari surilgan:

jinoyat-huquqiy prinsiplar huquqiy ongning elementlaridan biri bo'lib, davlatning jinoyat-huquqiy siyosati uchun asos hisoblangan huquqiy qarashlar, jamiyatning muayyan davr uchun ehtiyoj va talablari, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini o'zida aks ettiradigan tizimli, ilmiy asoslangan huquqiy qarashlar yig'indisidir;

jinoyat-huquqiy prinsiplar jinoyat huquqi tizimidan tashqarida turadi, chunki huquqiy prinsiplarning universalligi uning ma'lum bir huquq sohasi bilan

cheklanib qolgan qoidalardan ajratib turadi, ulardan ustunligini ko'rsatadi (qonuniylik, tenglik, demokratizm, insonparvarlik nafaqat jinoyat huquqi, balki boshqa huquq sohaslarida ham prinsip hisoblanadi;

jinoyat-huquqiy prinsiplar xalqaro huquq normalariga asoslangan umumhuquqiy prinsiplar mazmunidan kelib chiqadi va ularga asoslanadi;

jinoyat-huquqiy prinsiplar jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalaridan kelib chiqqan holda jinoyat qonunchiligi rivojlanishi yo'nalishlarini belgilab beradi.

21. Garchi ayrim qilmishlarda jinoyat tarkibi barcha elementlari mavjud bo'lsada, ularni kam ahamiyatligi sababli jinoyat deb topmaslik mumkinligi, sharoit o'zgarganligi tufayli qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi, pushaymonlik, yarashuv kabi sabablar asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi kabi normalarni tadqiq qilish, ularni nazariy asoslash uchun "**maqsadga muvofiqlik prinsipi**"ni; korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilikning takomillashtirilishi, soliq sohasidagi jinoyatlar, fuqarolik-huquqiy munosabatlar bajarilmasligidan kelib chiqadigan jinoyatlarda aybning mavjudligini aniqlashni nazariy jihatdan tadqiq qilish uchun "**ayblilik prezumpsiyasi prinsipi**"ni doktrinal jinoyat-huquqiy prinsiplar sifatida tadqiq qilish lozimligi taklif qilinadi.

II. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

22. JK 2-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

"Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks jinoyat qonunchiligi prinsiplarini, jinoiy javobgarlikning asoslarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilaydi".

23. JKning 4-moddasini quyidagi tahrirdagi uchinchi qism bilan to'ldirish taklif qilinadi:

"Jinoyat qonunini o'xshashlik bo'yicha qo'llashga yo'l qo'yilmaydi".

24. Jinoyat kodeksining 5-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilishi taklif qilinadi:

"5-modda. Qonun oldida tenglik prinsipi

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar.

Mazkur Kodeksda nazarda tutilgan ayrim toifadagi shaxslarning jinoiy javobgarligiga oid normalar tenglik prinsipiga zid hisoblanmaydi".

25. JK 7-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"7-modda. Insonparvarlik prinsipi

Jinoyat kodeksi shaxsning shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlaydi.

Jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Hech kim qiynoqqa

solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin”.

26. JKning 10-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“10-modda. Jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi

Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi shart.

Ushbu Kodeksda belgilangan holatlarda shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin”.

27. JKni “Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning asoslari” deb nomlangan alohida bob bilan to‘ldirish, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi, normalari raqobati, murakkab aybli, tamom bo‘lmagan, takroran sodir etilgan jinoyatlarni, jinoyatlar majmuini, retsdiv jinoyatlarni kvalifikatsiya asoslari mustahkamlab qo‘yilishi taklif etiladi.

28. JK 35-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“Quyidagi holatlar, ya’ni kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog‘ida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish; kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik; jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish natijasida qilmish sodir etish, jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo‘zg‘atiladigan ishlarda jabrlanuvchining shikoyati mavjud emasligi jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi”.

29. Quyidagi mazmundagi 41²-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“41²-modda. Jabrlanuvchining shikoyati mavjud emasligi

Jabrlanuvchining aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab bergan shikoyati asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi shartligi qonunchilikda belgilangan hollarda, bunday shikoyatning mavjud emasligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qiladi”.

30. JK 48¹-moddasi amaliyotda probatsiya choralari kirib kelganligi hamda JKning yangi tahriri loyihasida probatsiya choralari alohida jinoyat-huquqiy ta’sir chorasi sifatida kiritilayotganligi munosabati bilan takomillashtirilishi kerak. Bunda ozodlikni cheklash jazosi va uni ijro etmaganlik shartlari jazo sifatida, ma’lum bir cheklashlar va ta’qiqlarni esa probatsiya choralari sifatida ajratish taklif etiladi.

31. Sud amaliyotidan kelib chiqqan holda jamoa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari kafilligi asosida jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish haqidagi normalarni JKga kiritish taklif etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТОШПУЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ПРИНЦИПЫ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

12.00.08 – Уголовное право. Криминология. Уголовно-исполнительное право.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.DSc/Yu227.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	Абдурасулова Кумринисо Раимкуловна доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Кабулов Рустам доктор юридических наук, профессор Расулев Абдулазиз Каримович доктор юридических наук, профессор Абдукадиров Шерзод Ёкубжонович доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 14 августа 2023 года в 14-00 на заседании Научного совета DSc.07/13.05.20120.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36; факс: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1161). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: +99871 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 31 июля 2023 года.

(протокол реестра № 05 от 31 июля 2023 года).

А.А.Отажонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

М.К.Уразалиев
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

Н.С.Салаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор.

Введение (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в борьбе с преступностью все более актуальным становится соответствие уголовного законодательства требованиям общепризнанных принципов. Усиление процесса глобализации также свидетельствует о необходимости совершенствования законодательства в области борьбы с преступностью в соответствии с требованиями времени. Согласно анализу данных ООН по уровню преступности в 137 странах, в среднем в мире на каждые 100 000 населения приходится 44,74 преступления. При этом, несмотря на то, что уровень преступности обусловлен высоким уровнем бедности и безработицы, экономическое развитие не всегда приводит к снижению уровня преступности, наблюдается, что правильная налаженность деятельности правоохранительных органов, совершенствование уголовного законодательства соответствующему уровню преступности в обществе, обеспечение неотвратимости ответственности, справедливое наказание лиц, совершивших преступления также влияют на уровень преступности¹. Это свидетельствует об актуальности совершенствования уголовного законодательства, установления принципиальных положений и обеспечения их соблюдения при установлении правовых основ борьбы с преступностью.

В мире проводятся исследования по совершенствованию уголовного законодательства, обеспечению неотвратимости ответственности лиц, совершивших преступления, недопущению произвольного наказания лиц, обвиняемых в совершении преступлений, разработке эффективных мер по обеспечению того, чтобы уголовные наказания не становились чрезмерно суровыми, не назначалось необоснованно мягкое наказание виновным, гуманного отношения к лицам, совершившим преступления, имплементации положений норм международного права в этой области, в национальное законодательство.

В нашей республике проводится значительная работа по отказу от норм, допускающих различное толкование уголовного законодательства и совершение коррупционных деяний, установление ответственности за деяния, степень и характер общественной опасности которых не соответствуют принципам уголовного законодательства, устранению имеющихся пробелов, противоречий в уголовном законодательстве, совершенствованию уголовного законодательства, исходя из требований международных стандартов. В рамках Концепции совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан² особое внимание уделяется изучению международного опыта, практики совершенствования законодательства, унификации норм уголовного законодательства, совершенствования уголовной ответственности и системы наказаний. При этом

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/crime-rate-by-country>

² Концепция совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан, утвержденная постановлением Президента Республики Узбекистан № 3723 от 14 мая 2018 года. Национальная база данных законодательства, 15.05.2018 г., № 07/18/3723/1225, 01.10.2018 г., № 06/18/5547/1975

актуальное значение приобретают руководящие положения уголовного законодательства, правильное установление содержания уголовно-правовых принципов, лежащих в его основе, исследование роли принципов в совершенствовании уголовного законодательства.

Диссертационное исследование в определенной мере способствует реализации задач, предусмотренных в Указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по усилению гарантий прав и свобод граждан в судебно-следственной деятельности» (2017), «О мерах по коренному совершенствованию уголовно-исполнительного законодательства» (2018), «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» (2022), «О дополнительных мерах по дальнейшему расширению доступа к правосудию и повышению эффективности деятельности судов» (2023) и в других законодательных актах касающихся темы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, приоритетное направление формирования инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹. Исследование уголовно-правовых принципов, внедрение результатов исследований в практику, исследования по вопросам значения принципов в совершенствовании уголовного законодательства проводились в международных, научных и образовательных учреждениях, таких как Управление по борьбе с наркотиками и преступностью (UNODC), Международный комитет Красного Креста (ICRC), Indiana University (США), Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law (ГФР), American Law Institute (США), University of Oxford (Великобритания), Northwestern University (США), University of Pennsylvania (США), Violence Research Centre University of Cambridge (Великобритания), Stockholm University (Швеция), Московский государственный университет (РФ), Ташкентский государственный юридический университет, Академия Министерства внутренних дел, Университет общественной безопасности.

Определенные научные результаты получены в исследованиях, связанных с изучением теоретических и практических вопросов уголовно-правовых принципов. В частности, были проведены исследования по темам: вопросы обеспечения неотвратимости ответственности в борьбе с преступностью, рассмотрения дел справедливым судом, обеспечения справедливости в борьбе с преступностью (Управление по борьбе с наркотиками и преступностью (UNODC), принцип о неприменимости срока

¹ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://www.unodc.org>, <https://www.legal-tools.org/>, <https://www.repository.law.indiana.edu>, <https://crimeresearch.org>, <https://www.icrc.org>, https://www.researchgate.net/publication_Principles_of_Criminal_Law, <https://www.britannica.com>, <https://www.justice.gov>, <https://www.cambridge.org>, <https://link.springer.com>, <https://www.shs-conferences.org>, <https://www.msu.ru> и на основании других источников.

давности к военным преступлениям, принцип обеспечения неотвратимости ответственности независимо от официального или служебного положения (Международный комитет Красного Креста (ICRC), имплементация принципов международного права в уголовное право (Indiana University), роль уголовно-правовых принципов в обеспечении ответственности за международные военные преступления на примере Нюрнбергского международного трибунала (Max Planck Institute for Foreign and International Criminal Law), принцип виновной ответственности (American Law Institute), принцип гуманизма при применении уголовных наказаний (University of Oxford), связь уголовно-правовых запретов с целью наказания и другими мерами уголовно-правового воздействия на основе уголовно-правовых принципов (Northwestern University), значение принципов, связанных с обеспечением прав личности, при совершенствовании уголовного законодательства (University of Pennsylvania), роль принципа виновной ответственности и неотвратимости ответственности в борьбе с преступностью (Violence Research Centre University of Cambridge), обеспечение принципа социальной справедливости (Stockholm University), система уголовно-правовых принципов (Московский государственный университет), действие уголовного закона во времени является средством обеспечения принципа законности (Ташкентский государственный юридический университет), роль уголовно-правовых принципов в борьбе с преступностью (Академия МВД, Университет общественной безопасности).

На сегодняшний день в мире проводятся исследования по следующим приоритетным направлениям, связанным с уголовно-правовыми принципами: роль принципа отсутствия преступления и наказания, не установленного законом (принципа законности), в действии уголовного закона во времени и пространстве; обеспечение принципа гуманизма при применении уголовных наказаний; определение того, какие принципы являются правовыми нормами (принципами-нормами) при совершенствовании уголовного законодательства; имплементация принципов международного уголовного права во национальное законодательство; обеспечение справедливости наказания; роль уголовно-правовых принципов в совершенствовании уголовно-правовой политики и уголовного законодательства и др.

